

## VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDAGI NAZORATSIZLIK VA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTICASINING TURLARI HAMDA UNDA UCHRAYOTGAN MUAMMOLAR

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich 314-guruh kursanti*  
**Bozoraliyev Azizbek Muhammadjon o'g'li**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada voyaga yetmagan jinoyatchilar shaxsining kriminologik tavsifi, ularning shaxsiy xarakteridagi o'ziga xos xususiyatlari, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi borasida mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar, voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatlar haqida statistik ma'lumotlar, voyaga yetmagan huquqbuzarlarning shaxsining kriminologik tavsifi haqida xorijiy huquqshunoslarning qarashlari tahlil qilingan.*

**Annotation:** *In this article, the criminological description of juvenile criminals, their unique personal characteristics, ongoing work in our country on the prevention of delinquency and delinquency among minors, statistical data on crimes committed among minors, juvenile delinquents The views of foreign jurists on the criminal description of a person were analyzed.*

**Kalit so'zlar:** *voyaga yetmaganlar, kriminologik tavsif, statistika, huquqbuzarlik, nazoratsizlik, qarovsiz voyaga yetmagan.*

Yoshlik o'zining olijanob tashabbusi, sofdillikka, adolatga intilishi bilan taraqqiyotning buyuk kuchlaridan birini tashkil qiladi. Yoshlik, bu -orzu, ishonch, kelajakka tuzilgan ulkan rejalar va istiqbolning boshlanishidir. Agar yoshlik orzusi bo'lmaganda inson hayoti bir nuqtada to'xtab qolgan bo'lardi. Aleksandr Ostrovskiyaytgandek, «Bolalikdayoq barkamol bo'lishni judayam zarur deb hisoblamayman, odam maktabni tugatganidan keyin ham ko'p narsalarni o'rganishi mumkin, ammo mashg'ulot ko'nikmasi va aqliy kamolotning asosi yoshlikda shakllanadi». Shu sababli ne'matdan unumli foydalanib, o'zining salohiyatini oshirib borgan, jamiyatda munosib o'rin egallashga kirishgan insonning ertasi nurafshon. Yoshlik shu narsa bilan baxtiyorki, uning kelajagi bor. Yoshlik paytida shunday ulug' fikrlar tug'ildiki, bu fikrlar kelajakda insonni ko'klarga ko'taradi. Demak, yoshlikni asrash, uning har bir soniyasining qadriga yetish lozim. Chunki dunyoda undan yaxshi palla ham, qimmatli narsa ham yo'q! Ammo "Yoshlik -beboshlik" deya nojo'ya harakatlarga qo'l urib, jinoyat ko'chasiga kirib ketayotgan yoshlar afsuski, bugun uchrab turibdi. So'nggi paytlarda jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarining aksariyati ham yoshlar o'rtasida kuzatilayotgani achchiq haqiqat.

So'ngi yillarda respublikamizda yoshlar siyosati eng ustuvor vazifa hisoblanib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning "Agar farzandlarimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqa uni yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilm-u hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy

berib quyishimiz hech gap emas"deya ta'kidlagan fikrlaridan ham yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish, vatanparvar etib tarbiyalash, ular o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish dolzarb masalaga aylanganligini hamda bu boradagi qarashlarga enidilikda jiddiy yondashuv ostida qarashimizni anglab olsak bo`ladi. Shu o'rinda huquqni muhofaza qiluvchi targ'ibot organlari o'smir yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish emas, balki jinoyatchilikning oldini olish, profilaktik chora-tadbirlar ko`rishga e'tiborni kuchaytirdilar. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va ularning sodir etilishiga sharoit tug`diruvchi vaziyatlarni bartaraf qilish davlat va jamiyat oldida turgan asosiy muammolardan biri sanaladi. Chunki voyaga yetmagan shaxslarning jinoyat sodir etishlari kelgusida ularning retsivist jinoyatchi bo`lish ehtimolini oshiradi hamda bu holat mamlakatning kelajakdagi taraqqiyotiga o'zining salbiy ta`sirini o'tkazadi. Umumiy jinoyatchilikdan farqli ravishda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi mamlakatning kelgusidagi taqdiri bilan bog`langan bo`lib, ushbu muammoga bugungi kunda alohida e'tibor bilan yondoshilmasa uning millat kelajagiga salbiy ta`siri ortib ketishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishning kriminologik muammolarini o'rganish voyaga yetmaganlar ijtimoiy kategoriyasining mazmuni, uning shakllanishi, rivojlanishi va jamiyatdagi o'rni, voyaga yetmaganlarning ideallari, qadriyatlar, mo'ljallari va faol hayotiy pozitsiyasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillar, yosh xususi-yatlari va hokazolarni tahlil qilish bilan bog'liq ayrim umumiy metodologik qoidalarni ko'rib chiqishni taqozo etadi. 2010-yil 29-sentyabrda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasidanda, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi tushuniladi. Yakka tartibdagi profilaktika ishida, qonun chiqaruvchi shunday ta'rif beradi: ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o'z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olishga doir faoliyat Qonunda ko'rsatilishicha yakka tartibdagi profilaktika ishi, shuningdek, ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora tadbirlarning maqsadi -huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishdir. Shuningdek, huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash bu tartibdagi profilaktika ishini taqozo etishi tushunilishi, ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora tadbirlarning maqsadi esa, ularni bartaraf etishga qaratilishi lozim. Aytish lozimki, qonunda ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar deganda, aniq nimalar nazarda tutilishi

keltirilmagan. Qonunda voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik vahuquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar keltirilgan va ushbu tizimiga quyidagilar kiradi: voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar; ichki ishlar organlari; ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari; vasiylik va homiylik organlari; sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari; mehnat organlari. Demak, ushbu subyektlar, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash bilan birgalikda ularni bartaraf etish uchun ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Lekin, amalda profilaktika, xususan, yakka tartibdagi profilaktika ishlarini olib borish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Qonunda ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat va boshqa fuqarolik organ va muassasalari ham huquqbuzarliklar bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan birga ularning sabablarini aniqlashlari ham vakolat doirasiga kiritilgan. Bizningcha, ushbu organ va muassasalarning vazifasi huquqbuzarliklar sabab va omillarini aniqlashga emas, balki ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim. Ushbu chora-tadbirlar, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklariga sabab bo'layotgan omillar, ya'ni iqtisodiy-ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-ma'muriy sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish zamirida amalga oshirilishi lozim. Ushbu omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ulardan ma'lum biridagi kamchilik, boshqasidagi yutuqlarni inkor etadi. Masalan, dunyoda iqtisodiy farovonlikka erishgan davlatlarda ham jinoyatchilik, xususan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi mavjud. Buo'z navbatida kamchilik, psixologik yoki boshqaruv sohada yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar mavjudigidan dalolat beradi. Ko'rinib turibdiki, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasining qanchalik samarali bo'lishi, ko'p jihatdan huquqbuzarlikka sabab bo'lgan omillar va sharoitlarni to'g'ri tahliliga bog'liq. Voyaga yetmagan jinoyatchining asosiy ijtimoiy-demografik xususiyati bu uning yoshi, jinsi va oilaviy ahvolidir. Jinoyat Kodeksimizga ko'ra, shaxs 16 yoshdan umumiy jinoiy javobgarlikka, 14 yoshdan boshlab esa qasddan odam o'ldirish, o'g'rilash, zo'rlash, jinsiy ko'rinishdagi zo'rlik ishlatish, o'g'rilik, bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning katta qismi 16-17 yoshda bo'lgan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladi. Voyaga yetmaganlar tomonidan asosan mazkur yosh oralig'ida jinoyatlarning sodir etilishiga turli sabablarni keltirish mumkin. Xususan, mazkur yosh oralig'ida o'smirlar ta'sirchan va janjalga moyil bo'ladi. Shuningdek, hayotiy tajriba etishmasligi, ishonuvchanlik, tez his-hayajonga berilish, asabiylik, mustaqillikka bo'lgan tabiiy intilish, o'ziga va atrofdagilarga baho berish mezonlarining shakllanibulgurmaganligi natijasida o'smirlar aksariyat hollarda bo'lib o'tayotgan voqealarning asl mohiyatini anglab eta olmaydi. Ushbu omillar inobatga olish ko'p jihatdan tergov uslubiyoti xususiyatlarini belgilab beradi. Sababi, voyaga yetmaganlar bilan munosabatlarda tergovchi protsessual me'yorlarga rioya qilishidan tashqari keng miqyosdagi

ma'naviy va ruhiy bilimlarga tayanishi lozim. Voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsiyatining keyingi muhim xususiyati uning jinsidir. Ushbu toifadagi jinoyatchilarning 90-95 % erkak jinsidagi shaxslar bo'lib, shu yoshdagi aholi qatlamining ko'pchiligini, ya'ni 48-52 % ni tashkil qiladi. Voyaga yetmagan va jinoyat sodir etgan qizlar esa aholining shu yoshdagi qatlamiga kiruvchilarning 4-9 % ni tashkil qiladi. Har ikki jinsga taalluqli voyaga yetmagan jinoyatchilarning bu ko'rsatkichlari mamlakatimizda keyingi o'n yil mobaynida bir hilligicha saqlanib qolmoqda. Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, keyingi paytlarda voyaga yetmagan qizlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar miqdori voyaga yetmaganlar jinoyatlari tarkibida 2-2,5 marta ko'paygan. Jumladan, har uchta fohishadan ikkitasi voyaga yetmaganlardir.

Shuningdek, voyaga yetmagan qizlar ko'pchilik jinoyatlarning sodir etilishida yo'naltiruvchi, o'g'rilik, talonchilik, ta'magirlik, firibgarlik, xatto odam o'ldirish jinoyatlarida esa ishtirokchi sifatida qatnashganlar. Voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsiyatining navbatidagi muhim xususiyati ularning oilaviy ahvalidir. Sababi, o'smirlarning shaxsiyatini shakllantirishda avvalombor ularning oilaviy muhiti asosiy rol o'ynaydi. Oilasi voyaga yetmaganlarning shaxsiyatini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Voyaga yetmagan jinoyatchilarning 55 foizi otasi yoki onasi yo 'q' yoki oiladan tashqarida (bolalar uyi, internat uyi va boshqalar) tarbiyalangan. Ayrim mualliflarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmagan jinoyatchilarning 65 foizi oilaviy muhit sog'lom emas va aksariyat hollarda bunday oilalarning oilaviy daromadlari ancha past bo'ladi. Endilikda o'smirlar shaxsining jinoiy-huquqiy hususiyatlariga e'tibor qaradigan bo'lsak, statistik ma'lumotlarga ko'ra, voyaga yetmaganlarning 20 foizi huquqbuzarlik sodir etgan vaqtda oldin sodir etgan jinoyatlari uchun sudlangan yoki sudlanganlik holati olib tashlanmagan holatda bo'lgadi. Voyaga yetmagan jinoyatchilarning 17 foizi huquqni muhofaza qiluvchi organlarda ro'yhatda turgan, 10 foizi esa oldin jinoiy javobgarlikka tortilmagan, ammo, boshqa turdagi tarbiyaviy harakterdagi jazolarga tortilgan bo'ladi. O'smirlar shaxsining jinoiy-huquqiy hususiyatlarini tahlil qilishni davom ettiradigan bo'lsak, ularning o'ziga xos yana bir jihati shuki, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning 78 foizi xususiy mulkka qarshi qaratilgan bo'ladi. Ammo o'smirlar tomonidan ushbu jinoyatlarning amalga oshirishga yagona sabab sifatida moddiy foyda deb tushunish kerak emas. Sababi, Rossiyalik huquqshunos olim Yu.M. Antonyanning ta'kidlashicha, ko'pincha o'smirlar mazkur toifagi jinoyatlarni o'zlarining kuchini ko'rsatib qo'yish, tengdoshlari orasida hurmat va ishonch qozonish uchun amalga oshirishadi. Shuningdek, o'smirlar shaxsining jinoiy-huquqiy hususiyatlaridan yana biri, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar aksariyat hollarda haddan tashqari shafqatsizlik bilan ajralib turadi. Buning o'ziga xos sabablari mavjud. Xususan, voyaga yetmaganlar jinoiy qilmishlarini shafqatsizlik bilan amalga oshirish orqali o'zlarining tengdoshlari orasida o'rnini kuchaytirish, aqliy kamchiliklarini shafqatsiz fel-atvori orqali qoplashga harakat qilishadi. Voyaga yetmaganlar kriminalistik shaxsining navbatdagi belgisi bu ularning axloqiy va psixologik xususiyatlaridir. Tadqiqotlarga ko'ra, 14 yoshdan 18 yoshdagacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning fe'l

atvorida uyat-andisha, o'zgarlar tashvishini anglamaslki, o'zini tuta bilmaslik, qo'pollik, yolg'onchilik va o'z aybini tan olmaslik kabi xislatlar kuzatilgan. Shuningdek, bu yosh oralig'ida voyaga yetmaganlar extirosiga beriluvchan, odamovilik, o'zgarlar dardiga xamadard bo'la olmaslik, tajovuzkorlik, o'jarlik kabi xislatlar ko'proq kuzatiladi. Shuningdek, aksariyat hollarda ularda huquqiy ong past bo'ladi, ular o'qish, san'at va siyosatga qiziqmasdan, aksincha ko'ngilochar o'yinlarga, ichkilikka qiziqishadi va bu kabi extiyojlarini qondirish uchun g'ayriqonuniy va jinoyiy yo'llar bilan mablag' topishga harakat qilishadi. Voyaga yetmaganlarning kriminalistik harakterining so'ngi belgisi bu-ularning fiziologik xususiyatlaridir. Xususan, huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning aksariyati spirtlik ichimliklarga va giyoxvandlik vositalariga ruju qo'ygan bo'lishadi. Bu esa, o'z navbatida ularning shaxsiyatini tanazzulga uchrashiga va turli o'ylanmagan xavfli qilmishlarni sodir etishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rasatadiki, huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlarning 15 foiz o'z qilmishlarini spirtli ichimliklar yoki giyoxvandlik vositasi ta'sirida sodir etishgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, voyaga yetmaganlarning kriminalistik harakterida quyidagi xususiyatlarni ko'rish mumkin ekan:

-Voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbuzardiklar aksariyat hollarda ular 14-15 yoshlarida sodir etiladi; -Voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbuzarliklar ko'p hollarda shavfqatsizlik sodir etiladi;

-Voyaga yetmagan huquqbuzarlarning xarakterida o'qish, shaxsiy rivojlanish va mehnat qiziqish bo'lmay, aksincha, ko'ngilhushlikka, spirtli ichimliklar va giyoxvandlik vositalariga qiziqish kuchli bo'ladi;

-Voyaga yetmaganlar huquqbuzarlarning aksariyat hollarda sog'lom oilaviy muhit bo'lmaydi va moddiy jihatdan qiyin ahvolda bo'ladi.

Yana bir muhim jihatni aytish mumkinki, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olishda e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihatlardan yana biri, bu -voyaga yetmaganning bo'sh vaqtini samarali ishga yo'naltirishdir. Bunda ularni ish bilan ta'minlash, to'garaklarga jalb etish, ma'rifiy-ijodiy tadbirlarni tashkil etish lozim hisoblanadi. Albatta, bularning barchasi aniq dastur va loyihalar asosida tashkil etilishi, moliyaviy asosga ega bo'lishi lozim. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning tashabbusi asosida ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus shular jumlasidandir.